

**TURKISTONDA TASAVVUF TA'LIMOTINING TARQALISHI**

Shavkat Xamzayev Abdirasulovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti

E-mail: shavkatxamzayev84@gmail.com

tel: (93)7221956

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston hududida tasavvuf ta'limotining shakllanishi va tarqalishi jarayoni, uning ijtimoiy, ma'naviy hamda falsafiy ahamiyati tahlil etilgan. Muallif tarixiy manbalar va mashhur allomalar – Xoja Ahmad Yassaviy, Imom G'azzoliy, Alisher Navoiy, Fitrat kabi mutafakkirlar qarashlariga tayangan holda, tasavvufning mohiyatini, maqsadi va inson ruhiy kamolotidagi o'rnini yoritib beradi. Tadqiqotda tasavvufning lug'aviy va falsafiy ma'nolari, uning asosiy bosqichlari – shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat tizimi keng tahlil qilinadi. Xulosa o'rnida, tasavvuf va yassaviylik ta'limoti o'z mohiyatiga ko'ra insonni komillikka yetaklovchi, ma'naviy poklanish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi diniy-falsafiy yo'nalish sifatida baholangan.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf, Yassaviya, tariqat, ma'rifat, haqiqat, ruhiy kamolot, ma'naviy meros.*

Kirish. Yurtimiz O'zbekiston o'zining ilmiy-ma'naviy, ma'rifiy-falsafiy merosi bilan dunyoga tanilgan ko'plab buyuk allomalari va mutafakkirlari bilan faxrlanib kelgan. Ular tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining natijasi bo'lgan bebaho asarlari va buyuk kashfiyotlari asrlar osha nafaqat bizning diyorimiz, balki jahonning umumbashariy ilmiy ma'naviy mulki sifatida ham qadrlanadi. Afsuslar bo'lsinki, sobiq tuzum davridagi buyuk allomalarimizga nisbatan bo'lgan adlolatsizliklar tufayli ular qadrlanmadi va xalqimiz, keng jamoatchilik ajdodlarimiz merosidan bebahra bo'lib keldilar. Mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ajdodlarimiz xotirasini tiklashi tufayli buyuk zotlar munosib hurmat-e'tibor ko'rsatildi va bugungi kunda bu ishlar davom



ettirilmoqda. Ibratga boy hayot yo'llari va ilmiy-falsafiy meroslarini o'rganish va ularni keng jamoatchilik orasida targ'ib qilish davlatimizning bugungi kun siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqillik yillarida bu muhim va dolzarb masalalar bo'yicha e'tiborli ishlar amalga oshirildi.

Professor A.Fitrat birinchilardan bo'lib, Xoja Ahmad Yassaviy yashagan davrdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit, uning hayoti va faoliyati, yassaviylik ta'limotiga asos solishi, "Devoni hikmat"ning ma'no-mazmuni, mohiyati, tariqatining keyingi davrlarda rivojlanishi, Yassaviyning irfoniy-falsafiy qarashlarini yoritib o'tgan.

Mustaqillik sharofati bilan, O'zbekistonda yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi. Dastlab turli matbuotda "Devoni hikmat"dan namunalar e'lon qilingan bo'lsa, 1990-1992 yillarda uning ikkita mustaqil nashri kitobxonlar qo'liga yetkazildi. Mamlakatimizda, 1993 yil Turkiston xalqlarining ma'naviy-ahloqiy, tasavvufiy-falsafiy taraqqiyotiga hissa qo'shgan mashhur ta'limot asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy nomi bilan yil e'lon qilingan. Yassaviyning hayoti va faoliyati tarixiga xolisona baho berish, tasavvufiy ta'limotning shaxs, oila, jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini o'rganish va bugungi avlodga yetkazishga ehtiyoj sezildi. Matbuotda Yassaviy hayoti va faoliyati, ma'naviy merosi, ta'limotiga doir maqola, risola, asarlar hamda ilmiy tadqiqotlar yaratilayotganligi haqida ma'lumotlar chop etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodiy faoliyatini ibrat sifatida, uning asarlarini mazmun-mohiyati mamlakatimiz kelajagini barpo etuvchi yosh avlod orasida targ'ib qilish, jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy barqarorligiga, rivojlanishiga, osoyishtaligiga munosib tarzda hissa qo'shishi shubhasiz. Shuningdek, Yassaviy hikmatlarining O'zbekistondagi bir qancha qo'lyozmalari asosida uning yig'ma qiyosiy matni e'lon qilindi va kataloglashtirildi.

Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlarini to'g'ri yoritish uchun avvalo ushbu davr manbalari bilan tanishish zarur. Shuning uchun Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti va faoliyati, ta'limoti, tariqati, hikmatlari, ijtimoiy qarashlariga doir ma'lumotlarni So'fiy Muhammad Donishmandning "Mir'ot ul-



qulub”¹, Safiyiddin O’rung Qo’yo’loqiyning (Yassaviyning yaqin qarindoshi) “Nasabnoma”², Imom Husomiddin Sig’noqiyning “Risola dar tarjimai Xoja Ahmad Yassaviy”³, Xoja Is’hoqning “Hadiqat ul-orifin”⁴, muallifi noma’lum “Risolai sulton Xoja Ahmad Yassaviy”⁵, Sulton Ahmad Haziniydirning “Manba’ ul-abhor fi riyoz il-abror”, “Jomi’ ul-murshidin”⁶, “Javahir ul-abror min amvaj il-bihar”⁷, Muhammad Olim Shayxning “Lamahot min nafahat il-quds” (Muqaddas uforlardan shu’lalar)⁸ kabi tarixiy asarlar va manoqiblarda ko’rishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda diniy-irfoniy ta’limotlar islomiy g’oyalarni tarqatish, Allohga bo’lgan qalb e’tiqodni ta’limotlar orqali chuqurroq anglashni targ’ib qilib kelganlar. Tasavvuf ta’limoti insonning ijtimoiy mohiyati, ruhiyati, axloqi haqida falsafiy bahs yuritadi. Xoja Ahmad Yassaviyning ilmiy-tasavvufiy merosidagi insonning ruhiy kamoloti, insoniylik haqidagi g’oyalarini falsafiy nuqtai nazardan tahlil va talqin qilish bu masalalarni yoritishga yordam beradi. Shu jihatdan ham Xoja Ahmad Yassaviyning diniy-irfoniy qarashlarini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. “Qiyos-ul lug’at”ning muallifi: “So’fiy-xirqapo’shdir, zero’ki, yungni suf deyishadi; fuqaroning istilohida o’z diliga nigoh qaratgan, hayolini Haqdan boshqa narsadan poklangan kishi so’fiy deb ataladi”⁹-deb yozadi.

¹ Асарнинг бир нусхаси Уппсала кутубхонасида (Universitetsbibliothek. –№472. 1586-177а), иккинчи нусхаси Тошкентда (Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази. – № 3004) сақланади.

² Mevlana Safiyud’din. Neseb-name tercümesi, haz. Eraslan K. – İstanbul, 1996.

³ Имом Ҳусомиддин Сигноқий. Рисола дар таржимаи Хожа Аҳмад Яссавий. Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази. №11084 (116-14а).

⁴ Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази. №11838 (в.1b-131a).

⁵ Бу рисолани матбуотда илк бор Неъмат Жабборов эълон қилган. Қаранг: Жабборов Н. «Рисола дар одоби тариқат» – Тасаввуф тарихига оид муҳим манба // Қўлёзмалар – дурдоналар... Илмий-амалий анжуманга тақдим этилган маърузалар баёни. – Тошкент, 2001. – Б. 23-25.

⁶ Қўлёзма Берлин давлат кутубхонасида сақланади (Ms. Orient. Oct. 2847).

⁷ Ҳазинийнинг тадқиқотга жалб этилган яна бир шеърӣ асари «Ҳужжат ул-аброр дар асомийи авлиёӣ кибор» Париж миллий кутубхонасида сақланади (Bibliothèque Nationale. Pers A.F. 263. – 103b-173b).

⁸ Шайх Муҳаммад Олим Сиддиқий. Ламаҳот мин нафаҳот ил-қудс. Нашрга тайёловчи. М.Назир Ранжҳа. –Исломобод-Лаҳор, 1986; DeWeese D. The Yasavi Order and Persian Hagiography in Seventeenth-Century Central Asia: Alim Shaykh of Aliyabad and his «Lamahat min nafahat al-quds» // The Heritage of Sufism. – Vol. III. – Oxford, 1999; Ҳасан Н., Султон Ў. Олим Шайхнинг «Ламаҳот мин нафаҳот ил-қудс» асари ва унинг яссавийшуносликдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б. 16-25; Hasan N. Âlim Şeyh ve onun «Lemehat min nefehat il-kuds» eseri. Tasavvuf ilmi ve akademik araştırma dergisi. – Ankara, 2007. Sy. 18. – S. 229-242 в.б).

⁹ Маматов Н., Ҳожибоев А., Жўраев Ш. Фалсафа тарихи (Шарқ ва Ғарб фалсафаси, ўқув қўлланма). – Тошкент: ТМИ, 2006. -Б.57-58.



Tojikistonlik tasavvufshunos M.Hazratqulov Shahobiddin Suhravardiyning “Avorif ul-maorif”ida “So‘fiy kalimasi muqaddas kalomda uchramaydi, lekin so‘fiylar taqvo ahlidandur”, deb yozgan so‘zlariga diqqatni jalb etadi¹⁰. Suhravardiy so‘fiy atamasining “muqaddas kalom”da uchramasligini shunchaki eslatib o‘tmasdan, qaysi tilga mansubligini ham aytgan. “Tasavvuf” so‘zining izohida boshqa ma’nolarni kashf etgan tadqiqotchilar ham mavjud: 1) “so‘fiy” - “saff”(safda turish)dan olingan bo‘lib, so‘fiylar Allohga yaqin turuvchi insonlar, deb sharh etiladi. 2) “Suf” degani, “sufa”(supa) so‘zidan olingan, ya’ni “Muhammad payg‘ambarning Madinadagi masjidida katta bir sufa bo‘lib, unda har tarafdin kelgan va islom diniga e’tiqod qo‘ygan kishilar yashab, muttasil ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishgan”¹¹. 3) “So‘fiy “sufvot”dan olingan, “sufvot” har qanday yomonliklardan ham toza degan ma’noni ham beradi. Allohga ishonchlari har qanday shubhadan xoli kishilardir, degan fikr ham mavjud”¹².

Hozircha ilmiy iste’molga kiritilgan bunday ta’rif-tavsiflarning o‘zi ham o‘nlab, yuzlab uchraydiki, ularning eng ahamiyatlilarini qarab chiqamiz. Alisher Navoiy: “Tasavvuf nima?” degan savolga: Birovga musallam tariqi tasavvuf, Ki zotida mavjud emasdur taxalluf, deb javob beradi. Demak, kimgaki tasavvuf yo‘lini tutish nasib bo‘lgan ekan, endi uning jismida bu yo‘ldan boshqa yo‘l yo‘q. Ma’lum bo‘ldiki, bu yerda tasavvuf insondan kuchli qat’iyat, masuliyat talab qilmoqda. Tasavvuf sabr-qanoatli kishilar uchun axloq bo‘lib ham xizmat qiladi. Tasavvufda taot-ibodat bu zohidlik, dunyoviy lazatlardan parhyez qilish, taqvo-Allohdan qo‘rqish, Alloh yo‘lida o‘zini ko‘p narsalardan tiyish, haromdan yiroq yurishdir. Riyo, o‘zini ko‘z-ko‘z qilishga urinish, ikkiyuzlamachilik, tashqaridan o‘zini pok qilib ko‘rsatish tasavvufga yot xatti-harakatdir. Alisher Navoiy tasavvufni riyokorona zuhdu taqvoyu toatga yo‘l bermaydigan bir ma’rifiy yo‘l sifatida ta’riflaydi. Albatta, tasavvuf ham xolis niyat bilan qilinadigan bir taqvo, unda Allohga chin ko‘ngildan, xolis bandalik xizmatini ato etish, mehribonlik ko‘rsatish

¹⁰ Ҳазратқулов М. Тасаввуф.-Душанбе, 1988. - Б. 12.

¹¹ Сейидов М.А. К вопросу трактовки понятий древнетюркских памятников // Советская тюркология.-Баку, 1973.- Б. 3.

¹²Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби [Навоий ҳақида]. - Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 317.



bor. Tasavvufning insonni anglash va taraqqiy ettirish yo'llari, inson axloqini poklash masalasi, komil inson haqidagi qarashlari, tasavvuf ta'limotining asosiy mavzui bo'lib qoldi. Tasavvuf mohiyatan inson qalbi va ruhiyatini o'yg'otib, axloqiy poklikni targ'ib etadi hamda jamiyatda jaholat va xudbinlikka qarshi kurashib, o'z navbatida, islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni karim va Hadisi shariflarga o'zining g'oyaviy asosi sifatida tayandi. O'tmishda tarki dunyo qilgan zoxid, o'zini Xudoga bag'ishlagan odam, odatda, dag'al jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurgan va bugungi tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, Tasavvuf – jun, po'stin so'zidan olingan bo'lib, ko'pchilik mutaxassislar ushbu oxirgi xulosani qabul qilganlar"¹³.

Tasavvufda tariqat tushunchasi insonning diniy-irfoniy, falsafiy ruhiy, kamolot yo'lidir. Sharqshunos olim O.Akimushkin tadqiqotlarida "Tariqat – Haqiqatni mistik bilishning uslubidir"¹⁴, deb ta'riflansa, professor N.Komilov tariqatga "taraqqiyot yo'li",¹⁵ deb baho beradi.

Tasavvufga oid ilmiy tadqiqotlarda, ruhiy kamolotga erishish yo'lining to'rtta asosiy bosqichlarini, ya'ni, tasavvuf ta'limotining amaliy qismini egallashga bel bog'lagan solikning ruhiy-ahloqiy, ma'naviy kamolot yo'li, deb qarashadi. Shu ma'noda, Yassaviya ta'limotida ta'kidlanishicha, "... bu dunyo muvaqqatdir, aldamchidir, narigi dunyo, undagi hayot asosiydir, doimiydir; yagona chin, eng komil, eng qiymatli oliy borliq o'sha - Xudoning... emanasiyasidir, tajallisidir; tabiat, lazzatlar, go'zalliklar, undagi hayot aldamchi, g'ayrikomil, qiymatsiz, g'urbatxona, qafasdir; undan voz kechish kerak, unga, undagi hayotga qarshi turgan (fenomenga, qiymatga)... Xudo vasliga vosil bo'lish lozim".¹⁶

Tasavvuf ta'limot va uning mazmun-mohiyati to'g'risida boshqa bir qator fikr-mulohazalar ham mavjuddir. Masalan, olim M. Mahmudovning fikricha, "... tasavvuf islom zaminida, u bilan deyarli bir zamonda islomgacha bo'lgan muayyan

¹³Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур.- Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004.- Б. 30-31.

¹⁴Тариқат. Ислам. Энциклопедический словарь.-Москва: Наука, 1991. – С.224.

¹⁵Комилов Н. Комиллик тариқати // Тафаккур. –1998. -№2-сон. – Б.61.

¹⁶Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби [Навоий ҳақида]. - Тошкент: Ўзбекистон, 1970. - Б.317.



falsafiy-diniy qarashlar ta'sirida tug'ilgan, xilma-xil tariqatu jamiyatlardan tarkib topgan, o'z nazariyasi va amaliyotiga ega bo'lgan, muttasil o'zgarib, takomillashib borgan murakkab diniy-falsafiy ta'limotdir"¹⁷. Sharqshunos olimi, professor O.F. Akimushkin ta'kidlaganidek: "Afsuski, hozirgi paytda tasavvufga bir tizim sifatida aniq ta'rif berish mumkin emas, chunki fanda favqulodda murakkab, ko'p yo'nalishlarga ega haddan tashqari rang-baranglik kasb etgan, butun islom olami va Ispaniya, Sisiliya hamda Boloniyada ham keng tarqalgan diniy dunyoqarash haqida yagona xulosa shakllangan emas"¹⁸. Mashhur turk olimi Mahmud As'ad Jo'shonning tasavvuf haqidagi fikri e'tiborga molik. U "Tasavvuf nima?" degan savolga quyidagicha javob beradi: "Tasavvuf-shayxga bog'lanish, Allohni har on zikr qilish, dunyoga mayl etmaslik, zuhd sohibi bo'lish, gunoh-ma'siyatlardan saqlanish, taqvo va hokozodir,... biz mutasavvuflar ahli tasavvuf bo'lishdan ham ko'ra, avvalambor, musulmonmiz. Qur'on ahlimiz, ahli sunnat val jamoatmiz, Rasulullohga ergashmoq orzusi bizlarni shunday ahvolga soladiki, bu holatning nomini tasavvuf deydilar, tariqat deydilar"¹⁹.

Turkiston o'lkasi tarixini ko'p yillar davomida o'rgangan akademik V.V. Bartold: "... bir xildagi ikki diniy oqim o'rtasidagi arziyas diniy-huquqiy kelishmovchilikning, nifoq-nizoning uzoq davom etganini tasavvur etish qiyin",²⁰ deb yozgan edi va bunda sharqshunos rasmiy islom va tasavvufni nazarda tutgan edi. V.V. Bartold tasavvufning vujudga kelishida rasmiy islom bilan tasavvuf o'rtasidagi tafovutni ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasi deb qaraydi. Akademik A.Ye. Krimskiy ham buning sabablarini: "So'fiyona asarlar ruhini sidqidildan o'rganish men shu fikrga olib keladi: tariqatlarning ajralish sabablari ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarga borib taqalishidadir"²¹, deb ta'kidlaydi. Professor Najmiddin Komilov so'fiylikning vujudga kelishining uch eng muhim omilini ko'rsatgan edi:

¹⁷ Махмудов М. Тасаввүф нима // Зарафшон, 1993 йил 21 сентябрь сони.

¹⁸ Акимүшкин О. Ф. Средневековый Иран: Культура, история, филология. — СПб.: Наука, 2004. — с.44.

¹⁹ Жўшон Маҳмуд Ас'ад. Тасаввүф ва нафс тарбияси. Таржимон: Нодирхон Ҳасан —Тошкент.: Чўлпон, 1998. — Б.24.

²⁰ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия: Часть 1. Часть 1. Тексты / В.В.Бартольд — Москва: Книга по Требованию, 1965. -С.19.

²¹ Крымский А.Е. Очерки развития суфизма дл конца VIII в. Хиджри. — Москва:1968.-С.39.



- Boylik, saroy hashamlari, qimmatbaho tuhfaralar, dabdabali bezaklar va oltin-kumushdan xazina to'plashga ruju qo'yish;

- Dunyo mol-mulkiga muhabbat qo'yish o'rnini xudo yo'lidagi toat-ibodatning egallay borishi;

- E'tiqodli kishilarning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga o'tlanishlari, ikkinchi qismi esa qanoat va zuhdni asosiy maqsad qilib olishidir.

Xulosa qilish mumkinki, tasavvufni, jumladan, yassaviya tariqati vujudga kelishining ijtimoiy-tarixiy negizlari shakllangan arab-musulmon jamiyatidagi feodal tartiblar, zulmning kuchayishi, boylik, zebu-zeynatga berilishga norozilik tuyg'usini diniy-tasavvufiy asoslash bilan chambarchas bog'liq deb hisoblash mumkin. Arab xalifaligi xududlarida islom dini doirasida tarkidunyochilik ko'rinishidagi tasavvuf ta'limoti milodiy VII-VIII asrlarda paydo bo'la boshlagan va keyinchalik musulmon Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. IX asr davomida tasavvuf nazariyasi va amaliyoti rivojlandi va bir qancha shaharlarda so'fiylik maktablariga asos solindi, jumladan Basra, Bag'dod va Xuroson maktablari paydo bo'lgan²². Tasavvuf yetakchilari inson va uning Xudoga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqidagi ta'limotlarini yaratdilar. So'fiylarning, X asrga kelib dastlabki diniy uyushmalari vujudga keldi. X-XI asrlarga kelib tasavvufda nazariy qarashlar va ta'limotlar to'liq shakllandi, musulmonlar tomonidan islomiy ta'limot sifatida qabul qilindi. Tasavvuf ta'limotlarining dastlabki davrida Mansur Halloj, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiylarning birgina borliq, haqiqat, mohiyat borki, u Xudodir kabi qarashlari tariqatlarda ilgari surilgan bo'lsa, Imom G'azzoliy, Xoja Ahmad Yassaviylar davriga kelib tasavvufiy-irfoniy qarashlarda Xudo bilan birlashib ketish g'oyasi ilgari surildi. XI-XII asrlarda tasavvuf ijtimoiy hodisa sifatida musulmon jamiyati, diniy hayotning bir qismiga aylandi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilov N. Tasavvuf. 1-2 kitoblar. - Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti hamda O'zbekiston nashriyotlari. 1996-1999. - 272 b

²² Бертельс.Е.Э. Суфизм и суфийская литература: Избранные труды (отв.ред. А.Н.Болдырев, сост. М. Н.О.Османов). - Москва: 1965. - С.45.



2. Шодиев Р.Т. Суфизм в духовной жизни народов Средней Азии (IX-XIII вв.). Автореф. Диссертации доктор философия. – Тошкент.: 1993.
3. Акимускин О. Ф. Средневековый Иран: Культура, история, филология. — СПб.: Наука, 2004. — с.44
4. Жўшон Махмуд Асъад. Тасаввуф ва нафс тарбияси. Таржимон: Нодирхон Ҳасан —Тошкент.: Чўлпон, 1998. – Б.24
5. Крымский А.Е. Очерки развития суфизма дл конца VIII в. Хиджри. – Москва:1968.-С.39.
6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур.- Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004.- Б. 30-31.
7. Бертельс.Е.Э. Суфизм и суфийская литература: Избранные труды (отв.ред. А.Н.Болдырев, сост. М. Н.О.Османов). - Москва: 1965. – С.45.
8. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши. – Тошкент: Академ нашр, 2020. – Б.133